

**BOLALAR NUTQIDA UCHRAYDIGAN NUTQ TOVUSHI BUZILISHLARI VA
ULARNING PSIXOLINGVISTIK TALQINI**

Muhammadjonova Asila Bahromjon qizi

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 2- kurs magistratura talabasi

asilamuhammadjonova@gmail.com

Tel. raqam : +998936752722

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bolalar nutqida uchraydigan nutq tovushi buzilishlari psixolingvistik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Nutq buzilishlarining fonologik, artikulyatsion va kognitiv jihatlari yoritilib, segmental aniqlik, fonologik jarayon buzilishi hamda qochish strategiyasining nutq rivojlanishidagi o'rni ko'rsatib beriladi. Shuningdek, NTBni tashxislash va korreksiyada kompleks yondashuvning ahamiyati asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *Nutq tovushi buzilishi, fonologik buzilish, psixolingvistika, artikulyatsiya, fonematik eshitish, nutq rivojlanishi.*

Аннотация: *В статье анализируются нарушения речевых звуков у детей с психолингвистической точки зрения. Освещаются фонологические, артикуляционные и когнитивные аспекты речевых нарушений, а также роль сегментной точности, фонологических процессов и стратегии избегания в речевом развитии. Подчеркивается значение комплексного подхода в диагностике и коррекции SSD.*

Ключевые слова: *Нарушение речевых звуков, фонологическое нарушение, психолингвистика, артикуляция, фонематический слух, развитие речи.*

Annotation: *This article analyzes speech sound disorders in children from a psycholinguistic perspective. The phonological, articulatory, and cognitive aspects of speech disorders are discussed, along with the role of segmental accuracy, phonological process disorders, and avoidance strategies in speech development. The importance of a comprehensive approach to the diagnosis and correction of SSD is emphasized.*

Keyword: *Speech sound disorder (SSD), phonological disorder, psycholinguistics, articulation, phonemic hearing, speech development.*

Kirish. Hammamizga ma'lumki, bugungi rivojlanayotgan yurtimizda ilm - fan taraqqiyoti muhim kasb etmoqda. Millat taraqqiyoti milliy tilning rivojlanishida ko'zga tashlanadi, albatta. "O'zbekiston taraqqiyotining bugungi kundagi yangi bosqichi – milliy yuksalish davri talablaridan kelib chiqib, ona tilimizning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda"(O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2019).Yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar – o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlash, uning mavqeyini ko'tarish bo'yicha qabul qilingan qonun va qarorlar tilshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlarining yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'ldi.

Bolalar nutqida kuzatiladigan fonetik-fonologik, leksik-semantik, grammatik hamda pragmatik kamchiliklar ko'pincha nutqni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlaridagi psixolingvistik mexanizmlarning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog'liq bo'ladi. An'anaviy yondashuvlarda bu kamchiliklar asosan tashqi belgilari asosida tavsiflangan bo'lsa, psixolingvistik yondashuv nutqiy buzilishlarning ichki kognitiv va psixik sabablarini aniqlash imkonini beradi. Shu jihatdan, nutqiy kamchiliklarni faqatgina tashqi belgilar sababli yuzaga kelishini emas, balki nutqni qayta ishlash tizimidagi muayyan bosqichlarning izdan chiqishi sifatida talqin qilish zarurati yuzaga kelmoqda.

Bugungi kunda xalqaro ilmiy adabiyotlarda bolalar nutqini tahlil qilishda Chiat, Stackhouse va Wells, Leontev kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan psixolingvistik modellar keng qo'llanilmoqda. Mazkur modellar nutqni qabul qilish, saqlash va ishlab chiqarish jarayonlarini yagona tizim sifatida ko'rib, nutqiy kamchiliklarni qanday yuzaga kelish jarayonini yaxshiroq anglashimizga yordam beradi. Biroq o'zbek tilshunosligida bolalar nutqidagi kamchiliklarni aynan psixolingvistik yondashuv asosida tizimli ravishda o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli emas. Bu esa mazkur mavzuning ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan dolzarbligini belgilaydi.

Nutq tovushining buzilishi (NTB) shuningdek, fonologik buzilish, nutq buzilishi, nutqning kechikishi, nutqning buzilishi yoki funksional artikulyatsiya buzilishi deb ham ataladi. NTB atamasi yosh bolalar tomonidan o'zining tengdoshlari bilan solishtirganda so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishda tizimli xatolarga yo'l qo'yiladigan holat uchun mos keladi (Munson, B., Baylis, A. L., Krause, M. O., & Yim, D. 2009). Ko'pgina bolalarning nutqi taxminan olti yoshga kelib kattalar nutqiga moslasha boshlaydi va to'qqiz yoshga kelib rivojlanishini yakunlaydi (Smit, A. B., Hand, L., Freilinger, J. J., Bernthal, J. E. & Bird, A., 1990). Biroq, bolalarning ma'lum bir qismi uchun bu nutq tovushi xatolari bir umrga saqlanib qolishi mumkin. SSD (Nutq tovushi buzilishlari) turli xil etiologiyalarga, jumladan, rivojlanish buzilishlariga, kognitiv buzilishlarga va eshitish qobiliyatining pasayishiga bog'liq deb ishoniladi. Biroq, ushbu jarayonlarning hech biri qo'llanilmaydigan, kelib chiqishi noma'lum bo'lgan SSD bilan kasallangan bolalar guruhi ham mavjud.

NTB bilan og'rigan bolalar uchun nutq ishlab chiqarish ko'pincha 2 - 3 yoshdagi odatiy rivojlanayotgan bolalarning nutq ishlab chiqarishiga o'xshaydi. Ya'ni bola maktab yoshida bo'lishiga qaramay o'zidan 2 - 3 yosh kichik nutq ko'rinishidan foydalanadi. Lekin ushbu bolalar nutqi atrofdagilar tomonidan yaxshi qabul qilinmasa ham, ularning nutqini yaqinlari va atrofidagi insonlari tushuna oladi. Bunday nutq kamchiliklariga ega bo'lganlar segmental aniqlik, o'ziga xos xususiyatlar, fonologik jarayonlar, implikasiya qonunlari, atrof- muhit tiliga sezgirlik kabi nutq nuqsonlaridan biriga ega bo'lishi mumkin. (Leonard, L. B. 1995). Ammo nutq buzilishlarini psixolingvistik jihatdan tahlil qilishda nutqni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlari bir necha o'zaro bog'liq bosqichlardan iborat tizim sifatida qaraladi. Bu yondashuv Dorothy V. M. Bishop, Adele E. Stackhouse va Bill Wells kabi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan.

Ushbu modellarga ko'ra, nutq buzilishlari faqat artikulyatsiya darajasida emas, balki fonologik reprezentatsiya, fonologik qayta ishlash va motor rejalashtirish bosqichlarida yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan segmental aniqlik va fonologik jarayon buzilishi bir-biriga bog'liq, ammo turli darajadagi hodisalardir.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, NTB nafaqat artikulyatsion muammo, balki psixolingvistik jarayonlarning murakkab qismidir. Nutq buzilishlari turlarini aniqlashda turlicha yondashgan maqul. Chunki har bir nutq egasi turli darajadagi nutq buzilishlarini namoyon qiladi. O'zida mavjud bilimlar, imkoniyatlarni qo'llab muloqotni shakllantiradi. Bunday holatda bolalar aynan qaysi tizimda xato qilayotgani aniqlanib, vaqtida davolash jarayoni olib borilsa kamchiliklar bartaraf etiladi, yoki nutq ma'lum foizga aniqlashadi. Bundan tshqari, NTB aniqlashda kompleks yondashuvdan (fonologik, artikulyatsion, psixologik) foydalangan ma'qul. Chunki har bir buzilish boshqa bir nutq kamchilini keltirib chiqarayotgan bo'lishi mumkin. Shunday qilingan taqdirda aniq tashxis qo'yishda, samarali korreksion ishlarni tashkil etishda ijobiy natijalarni qo'lga kiritish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dodd, B., Holm, A., Crosbie, S., & McCormack, P. (2005). Differential diagnosis of phonological disorders. In B. Dodd (Ed.), *Differential Diagnosis and Treatment of Children with Speech Disorder* (2nd ed., pp. 44–70). London: Whurr Publishers.
2. Dodd, B., Holm, A., Crosbie, S., & McCormack, P. (2005). Phonological therapy within a psycholinguistic framework: Promoting change in a child with persisting speech difficulties. *International Journal of Language & Communication Disorders*, 40(2), 189–220.
3. Leonard, L. B. (1995). Phonological impairment. In P. Fletcher & B. MacWhinney (Eds.), *The Handbook of Child Language* (pp. 573–602). Oxford: Blackwell.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi 'Davlat tili haqida'gi Qonuni qabul qilinganining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4664611>
5. Pascoe, M., Stackhouse, J., & Wells, B. (2005). Phonological therapy within a psycholinguistic framework: Promoting change in a child with persisting speech difficulties. *International Journal of Language & Communication Disorders*, 40(2), 189–220.
6. Smith, A. B., Hand, L., Freilinger, J. J., Bernthal, J. E., & Bird, A. (1990). The Iowa articulation norms project and its Nebraska replication. *Journal of Speech and Hearing Disorders*, 55, 779–798.
7. Stackhouse, J., & Wells, B. (1997). *Children's Speech and Literacy Difficulties: A Psycholinguistic Framework*. London: Whurr Publishers.